

ISSN 2181-5887



# О'ЗВЕКИСТОН TERAPIYA AXBOROTNOMASI



ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЙ ВЕСТНИК  
УЗБЕКИСТАНА

№ 1, 2022

# **О'ZBEKISTON TERAPIYA AXBOROTNOMASI**

Ilmiy-amaliy jurnal

2022. № 1

# **ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЙ ВЕСТНИК УЗБЕКИСТАНА**

Научно-практический журнал

|  |    |
|--|----|
| Рахимова Д.А., Садикова Г.А., Жумаева А.<br>ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ РЕЖИМОВ КОМПЛЕКСНОЙ ТЕРАПИИ НА МЕДИЦИНСКИЕ<br>АСПЕКТЫ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ И ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ<br>БОЛЬНЫХ БРОНХИАЛЬНОЙ АСТМОЙ ..... | 72 |
|--|----|

## ГАСТРОЭНТЕРОЛОГИЯ

|  |    |
|--|----|
| Даминов Б.Т., Усманова У.Ш., Собирова Г.Н.<br>ВОЗМОЖНОСТИ БИОИМПЕДАНСМЕТРИИ ПРИ НЕАЛКОГОЛЬНОЙ<br>ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНИ ПЕЧЕНИ .....  | 77 |
| Қодирова С.Р., Хамрабаева Ф.И.<br>ИЧАК ДИСБИОЗИ БИЛАН ОГРИГАН БЕМОРЛАРНИ ДАВОЛАШ<br>БОСҚИЧИДА СИНБИОТИК БИЛАН МАГНИТОТЕРАПИЯ КОМПЛЕКСИНинг<br>ҚҮЛЛАНИЛИШ ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ ..... | 81 |
| Каримов М.М., Собирова Г.Н., Дусанова Н.М., Каримова Д.К.<br>ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНГИБИТОРА ПРОТЕАЗ УЛИНАСТАТИНА<br>ПРИ ТЕРАПИИ ХРОНИЧЕСКОГО ПАНКРЕАТИТА.....                   | 86 |
| Ф.И. Хамрабаева<br>РОЛЬ СРЕДИЗЕМНОМОРСКОГО ТИПА ПИТАНИЯ В ТЕРАПИИ ПАЦИЕНТОВ<br>С НЕАЛКОГОЛЬНОЙ ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНЮ ПЕЧЕНИ .....  | 91 |

## РЕВМАТОЛОГИЯ И НЕФРОЛОГИЯ

|   |     |
|---|-----|
| Алиахунова М.Ю., Абдуллаев А.Х.<br>ОСТЕОАРТРИТДА КАЛЬЦИЙ-ФОСФОР АЛМАШИНУВИ, ЖИГАРНИНГ<br>ФУНКЦИОНАЛ ҲОЛАТИ КЎРСАТКИЧЛАРИ.....   | 99  |
| Абдуллаев А.Х., Алиахунова М.Ю., Аляви Б.А., Абдуллажанова Ш.Ж.,<br>Расулов Ё.Э., Холмухamedов Ж.А.<br>СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ЛЕЧЕНИЮ ОСТЕОАРТРИТА В ЗАВИСИМОСТИ<br>ОТ ЕГО ФЕНОТИПОВ .....     | 107 |
| Абдурахманова Н.М., Ахмедов Х.С., Туракулов Р.И., Разакова Ф.С.<br>УРОВЕНЬ ПРОВОСПАЛИТЕЛЬНОГО ЦИТОКИНА TNF- $\alpha$ У БОЛЬНЫХ С АНКИЛОЗИРУЮЩИМ<br>СПОНДИЛОАРТРИТОМ, ПЕРЕНЕСШИХ COVID-19..... | 115 |
| Гадаев А.Г., Касимов Д.Х., Туракулов Р.И.<br>РЕВМАТОИД АРТРИТ МАВЖУД БЕМОРЛАРДА БИР КЕЧА-КУНДУЗЛИК<br>АРТЕРИАЛ ҚОН БОСИМ ТИПЛАРИ .....  | 119 |
| Алиахунова М.Ю., Абдуллаев А.Х., Нуридинова С.К., Хан Т.А.<br>ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОЙ КАРТИНЫ АКСИАЛЬНЫХ СПОНДИЛОАРТРИТОВ<br>У БОЛЬНЫХ С СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫМ РИСКОМ.....                      | 124 |
| Daminov B.T., Xaydarova F.A., Aliyeva A.V., Rasulev Y.E., Holmuhammedov J.A.<br>SURUNKALI BUYRAK KASALLIGI BO'LGAN BEMORLARDA UREMİK MIYOPATIYA .....   | 131 |
| Eshonov SH.N., Jabborov O.O., Sultonov N.N.<br>SURUNKALI GLOMERULONEFRIT KASALLIGIDA PLAZMAFEREZ AMALIYOTI<br>SAMARADORLIGINI BAHOLASH .....  | 139 |
| Мирзаева Ш.Х., Жаббаров О.О., Максудова М.Х., Турсунова Л.Д., Жуманазаров С.Б.<br>СУРУНКАЛИ БУЙРАК КАСАЛЛИГИ БЎЛГАН БЕМОРЛАРДА КАРДИОРЕНАЛ<br>СИНДРОМНИ ДАВОЛАШ .....                         | 143 |
| Тошева Ҳ.Б.<br>СУРУНКАЛИ ЮРАК ЕТИШМОВЧИЛИГИ КАМҚОНЛИК БИЛАН КЕЧГАНДА<br>КОМПЛЕКС ДАВОЛАШ НЕГИЗИДА БУЙРАК ФИБРОЗ<br>МАРКЕРЛАРИНИНГ ДИНАМИКАСИ.....   | 148 |

## SURUNKALI GLOMERULONEFRIT KASALLIGIDA PLAZMAFEREZ AMALIYOTI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

ESHONOV SH.N., JABBOROV O.O., SULTONOV N.N.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston*

### XULOSA

**SURUNKALI GLOMERULONEFRIT KASALLIGIDA PLAZMAFEREZ AMALIYOTINI SAMARADORLIGINI  
BAHOLASH**

**Eshonov SH.N., Jabborov O.O., Sultonov N.N.**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston**

Glomerulonefrit bu – streptokokkli infeksiya asorati tufayli kelib chiqadi, chunki bakteriya toksinlari buyrak koptokcha apparati hujayralari antigenini buzadi va autoantitelalarni hosil bo'lishiga turki bo'ladi, oqibatida nefronlarni bazal membranasiga o'tirib, orqaga qaytmaydigan jadallahish boradigan shikastlanishni keltirib chiqaradi. Kasallikni autoimmun xarakterdaligini inobatga olib, kasallikni birinchi belgilari paydo bo'lishi bilanoq erta plazmaferez amaliyotini tavsiya etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu maqolada turli kasaliliklar tufayli buyrak glomerulyar apparati shikastlanganda plazmaferez amaliyotining joriy usullari umumlashtirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra plazmaferez amaliyotining samaradorligi va asoratlari taqdim etildi.

**Kalit so'zlar:** Glomerulonefrit, autoimmun jarayon, palazmaferez.

### SUMMARY

**EFFICACY OF PLASMAPHERESIS IN CHRONIC GLOMERULONEPHRITIS**

**Eshonov SH.N., Jabborov O.O., Sultonov N.N.**

**Tashkent medical academy, Uzbekistan.**

Glomerulonephritis is most often a severe complication of streptococcal infection, when toxins on the pathway of excretion distort the antigen structure of cells of the glomerular apparatus of the kidneys and provoke the formation of autoantibodies, which are fixed on the basal membrane of the neuron with an irreversibly progressive lesion of the latter. Given the autoimmune nature of the disease, it is advisable to carry out plasmapheresis as early as possible starting from the first signs of its occurrence. In this the article summarizes the current methods of plasmapheresis in various diseases occurring with damage to the glomerular apparatus of the kidneys. Indications, efficacy and complications of plasmapheresis with the results of various studies are presented.

**Key words:** Glomerulonephritis, autoimmune disease, plasmapheresis.

### РЕЗЮМЕ

**ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЛАЗМАФАРЕЗА ПРИ ЛЕЧЕНИИ БОЛЬНЫХ ХРОНИЧЕСКИМ ГЛОМЕРУЛОНЕФРИТОМ**

**Эшонов Ш.Н., Жабборов О.О., Султонов Н.Н.**

**Ташкентская Медицинская Академия, Узбекистан.**

Гломерулонефрит чаще всего является тяжёлым осложнением стрептококковой инфекции, когда токсины на пути выведения искажают антигенную структуру клеток клубочкового аппарата почек и провоцируют образование аутоантител, которые фиксируются на базальной мембране нефрона с необратимо прогрессирующим поражением последнего. Учитывая аутоиммунный характер заболевания, здесь целесообразно возможно более раннее проведение плазмафереза начиная с первых признаков его возникновения. В этой статье обобщаются текущие методы проведения плазмафереза при различных заболеваниях, протекающих с повреждением гломерулярного аппарата почек. Приведены показания, эффективность и осложнения плазмафереза с результатами различных исследований.

**Ключевые слова:** Гломерулонефрит, аутоиммунное заболевание, плазмаферез.

**M**avzuning dolzarbligi. Surunkali glomerulonefrit-buyrak koptokcha, kanalcha va oraliq to'qimasining surunkali autoimmun yallig'lanishi bo'lib, uzoq vaqt davomida qaytalanuvchi hamda avj olib boruvchi kasallik. Bugungi kunda glomerulonefrit kasalligi har 10000 odamdan 10–15 tada uchraydi. Surunkali glomerulonefritni 10–20% zi esa o'tkir glomerulonefrit kabi, 80–90% i esa sekinlik bilan kechadi va analizlar vaqtida aniqlanadi. Surunkali glomerulonefrit nefrologiya muammolaridan eng muhimlaridan

biri bo'lib qolmoqda. Ko'p hollarda surunkali glomerulonefrit progressiv kechib, surunkali buyrak yetishmovchiligining terminal bosqichiga olib keladi. 40–76% da og'ir bemorlarning nogironligiga sabab bo'ladi (1). Glomerulonefritning eng keng tarqalgan morfologik shakli mezangioproliferativ glomerulonefrit bo'lib, uning ulushi glomerulonefritlarning tuzilishini 35,9% dan 67–68% gacha tashkil etadi (3,6). Asosan mezangioproliferativ glomerulonefrit, immunoglobulin A (IgA) ning koptokchalarga cho'kishi hisobiga bo'lib, AQSh va

Yevropadagi ulushi 10–20% dan, Osiyo mamlakatlari da 40–45% gacha tashkil etadi (2).

Surunkali glomerulonefrit rivojlanish sabablaridan biri autoimmun jarayon hisobiga kechadi. Bunda buyrak nefronlariga limfotsitlar sensibitsiyalanadi va autoantitelani paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Autoimmun jarayon buyrak koptokcha tizimini surunkali rivojlanib boruvchi tarzida shikastlaydi va bu jarayon glomerulonefritga, keyinchalik glomerulosklerozga olib keladi. Bu esa o'z navbatida buyrak koptokchalarida filtratsiya jarayoni buzilishiga sabab bo'ladi va surunkali buyrak kasalligi rivojlanadi (7). Glomeruloskleroz organizmda arterial gipertenziyaga, nefrotik va siyidik sindromlariga olib keladi. Bu jarayon oqibatida miya shishi, o'pka shishi, anosarka va insultga sabab bo'ladi (8). Keyinchalik organizmda organizm uchun zararli bo'lgan mahsulotlar ko'payadi va zaharlanishga olib keladi. Shuning oqibatida deyarli barcha bemorlar taxminan 90% zi rejalashtirilgan dializ amaliyotini qabul qiladi. Hodisalarning shunga o'xshash rivojlanishi revmatizmda kuzatiladi va 25% hollarda chindan ham revmatizm bilan glomerulonefrit birlashadi. Kasallikning autoimmun tabiatini hisobga olgan holda, plazmaferezni avvalroq uning boshlanishining birinchi belgilardan boshlab (3, 9) o'tkazish maqsadga muvofiqdir, garchi plazmaferez ko'pincha faqat glomerulonefritning steroidlarga chidamli shakllari uchun ishlataladi (4). Biroq, steroid terapiysi ko'plab asoratlar bilan kechadi, autoimmun jarayonning og'ir holatlarida uning imkoniyatlari cheklangan (5, 10).

Shunday ekan ayni damda soha mutaxassislarining asosiy maqsadi surunkali glomerulonefrit kasalligi patogenetik bo'g'inlarini chuqur tahlil qilish va har xil yo'llar bilan korreksiya qilib jarayon kechishini sekinlashtirib, bemor hayotini uzaytirishdan iborat. Surunkli glomerulonefritda jarayon progressivlanishini sekinlashtirish va buyrak faoliyatini yaxshilashning yo'llaridan biri bu qon reologiyasini yaxshilash,

autoantitelalarni kamaytirish va bu kasallikni uzoq vaqt remissiyaga tushirishdan iborat. Shuning uchun surunkali glomerulonefritni davolashda yallig'lanishga qarshi steroid dori vositalari, sitostatiklar va plazmaferez amaliyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Kasallikning autoimmun xarakterdaligini inobatga olib, maqsadli ravishda plazmaferez amaliyotini – ya'ni ilk bosqichlarida, ilk belgilari paydo bo'lishi bilanoq, o'tkazish kerak va an'anaviy davolashni surunkali glomerulonefrit jarayoniga ta'sirini o'rganishni lozim deb topdik.

**Tadqiqot maqsadi.** Surunkali glomerulonefrit aralash va nefrotik shakli bilan kasallangan bemorlarda an'anaviy davo va an'anaviy davo bilan plazmaferez samaradorligini solishtirma o'rganish.

**Tadqiqot materiallari va uslublari.** Ilmiy tekshirish uchun TTA ko'p tarmoqli klinikasining nefrologiya bo'limida davolanayotgan 50 nafar bemor va gematologiya va qon quyish ilmiy tekshirish instituti plazmaferez bo'limida davolanayotgan 10 nafar bemorlarga oid klinik materiallar, laboratoriya tahlillari va instrumental tekshiruvlari asos qilib olindi. Barcha bemorlar shartli 2 guruha bo'lindi, 1-guruhdagi 35ta bemorga odatiy patogenetik davo sifatida prednizolon, kurantil, heparin. 2-guruha 25ta bemorga patogenetik terapiya sifatida prednizolon, kurantil, heparin va plazmaferez amaliyoti o'tkazildi. Ikkala guruhdan davodan oldin birinchi, davodan so'ng o'n birinchi kunlari va bir oydan keyin umumiyligini klinik (UQT, UST, Nechiporenko bo'yicha peshob tahlili) va bioximik (mochevina, kreatinin, umumiyligini oqsil, ALT, AST, bilirubin), koagulogramma, KFT hisoblandi.

**Tadqiqot natijalari.** Ikkala guruh bemorlar 18–60 yoshlarda, 53% erkak, 47% ayol bemorlar tashkil etadi. Birinchi guruh bemorlar 35ta davodan oldin birinchi kun va davodan keyin o'n birinchi kunlari va o'ttizinchi kunlari umumiyligini qon taxlili, qon bioximik tahlili, umumiyligini peshob tahlili, Nechiporenko tahlili olindi va solishtirildi.

1-jadval

*Surunkali glomerulonefrit bilan davolangan I guruh bemorlar natijalari*

| Belgilar                          | Davodan oldin<br>1-kun | Davodan keyin<br>11-kun | Davodan keyin<br>30-kun |
|-----------------------------------|------------------------|-------------------------|-------------------------|
| ECHT mm/s                         | 22,97±2,51             | 17,4±1,74*              | 14,8±1,35**             |
| Kreatinin (mkmol/l)               | 245,95±42,50           | 206,97±28,05            | 200,38±22,4*            |
| Mochevina (mmol/l)                | 12,18±1,17             | 11,59±1,19              | 11,08±0,9               |
| Umumiyligini oqsil (g/l)          | 60,38±1,65             | 62,39±1,56              | 61,86±1,42              |
| KFT (ml/min/1,73 m <sup>2</sup> ) | 47,2±5,63              | 53,48±6,28              | 55,4±4,56               |
| (UST) oqsil miqdori g/l           | 6,41±0,45              | 1,02±0,24*              | 0,97±0,18*              |
| (UST) leykotsit                   | 11,49±2,08             | 11,31±3,59              | 10,23±2,01              |
| (UST) eritrotsit                  | 11,20±1,15             | 7,03±0,95*              | 8,86±0,75               |
| (UST) silindrlar                  | 2,77±0,44              | 1,97±0,32*              | 2,06±0,23               |
| <b>Nechiporenko</b>               |                        |                         |                         |
| Leykotsit                         | 11252±3738,26          | 8132,8±3107,35*         | 10356±1306              |
| Eritrosit                         | 10965,71±3761          | 7014,29±2933**          | 7008,1±2859**           |
| Silindrlar                        | 5,23±1,04              | 2,2±0,74**              | 2,1±0,75**              |

Izoh: \* – farqlar davolashdan oldin birinchi kun ko'rsatkichlarga nisbatan ahamiyatlari (\* – P<0,05, \*\* – P<0,01, \*\*\* – P<0,001)  
ECHT – eritrotsitlar cho'kish tezligi, UST – umumiyligini siyidik tahlili, KFT – koptokcha filtratsiya tezligi.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilib ko'rib chiqqanimizda umumiylar qon tahlilida yallig'lanish jarayoni ko'rsatkichi 24,3%ga, davodan 30 kundan so'ng 27,5%, ( $P < 0,05$ ) ishonchli darajada yaxshilanish kuzatildi, qondagi kreatinin miqdori 15,8%ga, 30-kun 18,5%ga kamaydi, KFT esa 13,3%ga 30 kundan keyin 17,3%ga oshgan, mochevina 4,8%ga 30-kuni 9,03%ga kamaygan, qondagi umumiylar oqsil miqdori esa 3,3%ga yaxshilandi, KFT 13,3%ga, davoning 30-kuni 17,3%ga

oshdi. Umumiylar siyidik analizida oqsil va eritrotsitlar miqdori ishonchli darajada kamaydi ( $P < 0,05$ ). Nechiporenko tahlilida eritrotsitlar va silindrlar ishonchli darajada kamayishiga erishildi ( $P < 0,05$ ).

Ikkinci guruh bemorlarini davolashdan so'ng tekshirib ko'rilmaga birinchi guruhga nisbatan ko'rsatkichlar yaxshilandi. Ikkinci guruh bemorlari tahlillari quyidagi 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval

#### Surunkali glomerulonefrit bilan davolangan II guruh bemorlar natijalari

| Belgilar                          | Davodan oldin<br>1-kun | Davodan keyin 11-kun | Davodan keyin 30-kun |
|-----------------------------------|------------------------|----------------------|----------------------|
| ECHT mm/s                         | 21,70±1,93             | 16,6±1,29*           | 12,4±1,27**          |
| Kreatinin (mmol/l)                | 237,62±36,02           | 180,94±33,06*        | 179,21±20,6*         |
| Mochevina (mmol/l)                | 15,42±1,61             | 11,64±1,22*          | 10,47±1,5**          |
| Umumiylar oqsil (g/l)             | 65,55±1,57             | 65,66±1,39           | 61,86±1,48           |
| KFT (ml/min/1,73 m <sup>2</sup> ) | 60,4±4,70              | 78,3±6,41**          | 96,3±5,8***          |
| (UST) oqsil miqdori g/l           | 8,41±0,33              | 2,15±0,22**          | 0,67±0,14***         |
| (UST) leykotsit                   | 11,92±1,19             | 7,60±0,92*           | 7,19±1,5**           |
| (UST) eritrotsit                  | 14,24±4,56             | 13,20±2,45           | 12,76±1,85*          |
| (UST) silindrlar                  | 3,16±0,32              | 2,04±0,29*           | 1,86±0,17**          |
| <b>Nechiporenko</b>               |                        |                      |                      |
| Leykotsit                         | 15940,80±5682          | 10264±4758*          | 11346±1306*          |
| Eritrotsit                        | 19870±13650,7          | 9176±1259**          | 2220±876***          |
| Silindrlar                        | 4,4±0,23               | 2,72±0,18**          | 1,02±0,32***         |

Izoh: \* – farqlar davolashdan oldin birinchi kun ko'rsatkichlarga nisbatan ahamiyatlari (\* –  $P < 0,05$ , \*\* –  $P < 0,01$ , \*\*\* –  $P < 0,001$ )  
ECHT – eritrotsitlar cho'kish tezligi, UST – umumiylar siyidik tahlili, KFT – koptokcha filtratsiya tezligi.

Ikkinci guruh laborator tahlillari yuqorida jadvaldan ko'rinish turibdiki, umumiylar qon tahlilidan ECHT 23,5%ga, 30-kuni 42,8%ga yaxshilandi, qon bioximik tahlilidan kreatinin qonda 23,8%ga, 30-kuni 24,6%ga kamaydi, mochevina 24,6%, 30 kundan keyin 32,1%ga ishonchli darajada kamaydi ( $P < 0,05$ ), qondagi umumiylar oqsil esa 10-kuni deyarli o'zgarish kuzatilmadi, 30-kunga borib plazmaferez seanslaridan so'ng 5,64%ga kamaygani kuzatildi. KFT 34% gacha ishonchli darajada yaxshilandi ( $P < 0,01$ ). Umumiylar siyidik tahlilida leykotsitlar miqdori 36,2% gacha, eritrotsitlar 7,3% gacha, oqsil miqdori 30,7%ga va silindrlar 35,4%ga ishonchli darajada kamaydi ( $P < 0,01$ ). Nechiporenko tahlilida esa leykotsitlar miqdori davoning 30-kuni 28,8% kamaydi, eritrotsitlar miqdori davoning 30-kunida 28,9%ga, silindrlar soni ishonchli darajada kamaydi ( $P < 0,01$ ).

#### Xulosa

Surunkali glomerulonefrit kasalligini davolashda ikkala guruhdagi bemorlarimizning laborator tahlillarini solishtirib ko'rganimizda davodan oldingi natijalarga nisbatan yaxshilanish tomonga o'zgarishini kuzatdik.

1. Umumiylar qon tahlilidan ECHT birinchi guruhda davodan oldin 22,97±2,51ni, ikkinchi guruhda 21,70±1,93 tashkil etgan bo'lsa, kompleks davolash bilan birgalikda, davolashning 11-kuni birinchi guruhda 17,4±1,74 ni, ikkinchi guruhda esa 16,6±1,29 ni tashkil etdi, ikkala guruhni 30-kuni solishtirganimizda

ikkinci guruh ko'rsatkichi 15,3% yaxshilangan. Qon bioximik analizida birinchi guruhga nisbatan ikkinchi guruhda mochevina 19,8%ga, kreatinin esa 6,1%ga kamaygan, umumiylar oqsil miqdori ikkinchi guruhda 8,94%ga kamayganligi kuzatildi. KFT birinchi guruhga nisbatan ikkinchi guruhda 16,7%ga yaxshilanganini kuzatildi.

2. USTda leykotsitlar miqdori 25,24%, eritrotsitlar 18,2%, silindrlar 9,8%ga ikkinchi guruhda yaxshilangan. Nechiporenko tahlilida leykotsitlar birinchi kuni birinchi guruhda 11252±3738,26, ikkinchi guruhda 15940,80±5682, davodan keyin 10-kuni I guruhda 8132,8±3107,35, II guruhda 10264±4758 miqdorga kamayib, 30-kuni I guruhga nisbatan 19%ga kamaygan, eritrotsitlar esa I guruhga nisbatan II guruhda 4,9%ga kamaygan, silindrlar miqdori 4,02%ga kamayishi kuzatildi.

3. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, surunkali glomerulonefrit kasalligida plazmaferez amaliyotining samaradorligi doimiy patogenetik davoga qo'shimcha qo'llanilishi samaraliligi kuzatildi va davolash sifatida qo'llash tavsiya etiladi.

#### ADABIYOTLAR

- Chandnani H.K., Jain R., Patamasucon P. Group C streptococcus causing rheumatic heart disease in a child. J Emerg Med 2015; 49: 12–14.
- Петрова В.И., Джулакян У.Л., Фёдорова Л.Н. и др. Эффективный плазмаферез у больной с

- анемией хронических заболеваний. Материалы XX конференции московского общества гемафереоза. Дубна, 2012; 102–103.
3. Tamer Sakaci, Researches/Araştırmalar, Plasmapheresis Experience in Patients with Acute Kidney Injury, Ş.E.E.A.H. Tip Bülteni 2017; 51(3):195–200.
  4. Haris A., Aranyi J., Braunitzer H. et al. Role of plasmapheresis in immunological kidney diseases. Experience from 1050 completed plasmapheresis treatment sessions. Orv Hetil 2011; 152: 1110–1119
  5. Müller-Deile J., Schiffer M. A new rescue regimen with plasma exchange and rituximab in high-risk membranous glomerulonephritis Eur. J. Clin. Invest. 2015. Vol. 45, №12. P. 1260–1269.
  6. Воинов В.А., Карчевский К.С., Исаулов О.В. статья по плазмаферез в нефрологии, 2017; 98–99.
  7. Walsh M., Catapano F., Szpirt W. et al. Plasma exchange for renal vasculitis and idiopathic rapidly progressive glomerulonephritis: meta-analysis. Am J Kidney Dis. 2011; 57: 566–574.
  8. Madore F. Plasmapheresis. Technical aspects and indications Crit. Care Clin. – 2002. – Vol. 18, – P. 375–392. Walters G.D., Willis N.S., Craig J.C. Interventions for renal vasculitis in adults. A systematic review BMC Nephrol. – 2010. – №11. – P. 12.
  9. Baweja S., Wiggins K., Lee D. et al. Benefits and limitations of plasmapheresis in renal diseases: an evidence-based approach. J Artif Organs 2011; №14. P. 9–22.
  10. Zhang Y.Y., Tang Z., Chen D.M. et al. Comparison of double filtration plasmapheresis with immunoabsorption therapy in patients with anti-glomerular basement membrane nephritis. BMC Nephrol 2014; №15. P. 128.